

## “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TARJIMASIDA RADIF

Zuhra Azilova Gulmon qizi,

*Nukus davlat pedagogika instituti assistant o'qituvchisi*

*O'zbek adabiyoti kafedrası*

*O'zbekiston, Nukus*

**Annotatsiya:** maqolada radif san'ati haqida so'z yuritilib, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qoraqalpochcha tarjimasida radif san'atining qo'llanilishi aslyat bilan qiyosiy tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** radif, qofiya, misra, bayt, muraddaf, tarjima, tarjimon

Mumtoz she'riyatimizda radif ko'pincha qofiya bilan birgalikda qo'llanilib kelingan. Radif adabiyotshunosligimizda qofiyadan keyin aynan takrorlanib keluvchi so'z va so'z birikmasi bo'lib, she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta'kidlash, o'quvchi e'tiborini jalb etib, shoir g'oyaviy niyatini o'quvchi qalbiga to'laroq, chuqurroq yetkazish maqsadiga xizmat qiladi.

“Farhod va Shirin” – radiflarga boy doston. Radif – misra oxirida takrorlanuvchi so'z. Radifga ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, “Radif “izma-iz keluvchi” ma'nosini ifodalovchi so'z” [1:236]. “Arabcha radif so'zi, aslida, otda suvoriyga mingashgan kishini anglatib, arab tilida “yo'ldosh”, “hamroh” ma'nosida ham qo'llaniladi. Shunga ko'ra she'rda hamma vaqt qofiyadan keyin ya'ni unga “mingashib”, yoki “yo'ldosh” bo'lib kelgan so'zlar takrorini radif deb ataganlar. Bu kalima xuddi shu ma'noda adabiyotshunoslik termini sifatida ishlatiladi. ...Adabiyotshunos Marat Hamroyev shunday yozadi: “Radif... – o'zbek, uyg'ur, turkman, ozarbayjon va turk klassik hamda hozirgi zamon sheriyatida qofiyadan keyingi so'z (ba'zan ikki yoki uch so'z) takrori. Biroq, shunday hollar ham bo'ladiki, radif qofiyadan oldin ham, ba'zan misraning boshida ham kelishi mumkin” [4:132].

Ta'kidlash joizki, radif faqat turkiy adabiyotga emas, balki Sharq adabiyotiga ham xos hodisa. U dastlab arab she'riyatida o'rganila boshlangan, boshqa xalqlar adabiyotiga arab adabiyoti ta'sirida kirib kelgan degan fikrlar ham bor. Radif faqat ikki yoki uch so'zdan iborat bo'lishi shart emas. Misol qilib aytsak, Lutfiy ijodida to'rt-besh so'zli, Alisher Navoiy she'riyatida olti so'zdan

tashkil topgan radiflar bor. Hatto, Navoiy ijodida qofiya va radif asosiga qurilgan she'rlar ham uchraydi. Radif qofiyadan keyin kelishi shart. Qofiyadan oldin takrorlanib kelgan so'zlar esa mumtoz she'riyatimizda "hojib" deb ataladi. Misra boshida kelgan so'zlar takrori esa mumtoz she'riyat ilmida "raddus-sadr il-al-ibtido", hozirda esa "anafora" deb nomlanadi. Radif she'rda oddiygina so'zlar takrori emas, balki "talaffuzda qofiyaning uzviy qismi, uning davomiday jaranglaydi" (S.Olimov). Demak, qofiya bilan radif ikkalasi bir-biriga bog'liq hodisalardir. Radif doimo qofiya bilan yonma-yon, birga, unga ergashib keladi. Qofiyasiz radif, radif emas. Radif qofiya bilan birgalikda she'rdagi intonatsiyani ta'minlaydi.

Agar ra'dif bir so'zdan tashkil topsa, u "qisqa radif" deyiladi. Bir nechta so'zdan tashkil topsa "yoyiq radif" deyiladi.

Radif she'rda oddiygina takror emas, u she'rda ohongdoshlikni quyuqlashtiradi, intonatsiyani, ma'noni kuchaytiradi. Natijada she'riy uyg'unlik darajasi orta boradi. Bu musuqiylik va ohangdorlik xuddi kuy kabi kishiga o'zgacha bir huzur bag'ishlaydi.

Radif she'riy asarda ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ko'pincha baytdagi asosiy fikr radifda kuchaytirilib, ta'kidlanib beriladi. Ya'ni, shoir fikrda nimaga ko'proq urg'u bermoqchi bo'lsa o'sha so'z va so'zlarni radif qilib keltiradi. Kitobxonning e'tiborini o'sha so'zga qaratadi.

Shoir asarlarida radif qo'llashi uning mahoratidan darak beradi. Masalan, Navoiyning "Farhod va Shirin" radiflarga boy doston. Doston – jami 5 ming 782 qo'shmisradan iborat. Shundan 965 tasi 17 foizini muraddaf (radifli) baytlar tashkil qiladi. Bu radifning dostonidagi eng asosiy badiiy san'atlardan biri ekanini ko'rsatadi. Radiflarning ishlatilishi jihatidan shoirning boshqa biror dostoni uning "Farhod va Shirin"dek rang-baranglikka ega emas.

Qoraqalpochcha tarjimada, kerek, edi, pil, ol, ber, kanin (18-bet), dep (19-bet), apat (20-bet), mumkin, jerde (21-bet), qildim (24-bet), boladi (26-bet), edi, dedi (28-bet), bar (60-bet), qlar (64-bet), ushin, emes, altin (69-bet), (76-bet),



bolmas (77-bet), edim (80-bet), bar (81-bet), edi (83-bet), edi (86-bet), bolıp (88-bet), etse (91-bet), dedi, desem, bolsam (92-bet), bolıp (97-bet), berip, dedi (100-bet), bar, ol (103-bet), song, boldı (104-bet), tur (105-bet), baratır (110-bet), kirdi (113-bet), turǵani (119-bet), jaqti (137-bet), edi (142-bet), bar (148-bet), bilmeymen, edi (156-bet), bar (157-bet), edi (159-bet), edi, joq (161-bet), boldım, boldı (165-bet), astı (168-bet), ǵana (194-bet), ber (218-bet), ber (226-bet), bolsın (229-bet), barin-de (232-bet), oning (235-bet), sesin, sen (237-bet), keldim (238-bet), aldı (239-bet), dedi (240-bet), song (244-bet), deding (245-bet), bolsa-da (247-bet), keshtim (248-bet), edim (249-bet), bardı (252-bet), edi (253-bet), bolding, edi (257-bet), keltirding (263-bet), juldız (264-bet), tasla (265-bet), juldız (265-bet), bishara (269-bet), almaydı (273-bet), joq (275-bet), bolsam (280-bet), bar (282-bet), edi, edi (287-bet), boldı (288-bet), qıldı (290-bet), edi (293-bet), endi (304-bet), urdım, haywan (309-bet), atınan (311-bet), dedingiz (316-bet), Farhadı (318-bet), edi (321-bet), kerek, ayttı (322-bet), dep (324-bet), ǵoy (325-bet), deng, qoydım, tur (326-bet), qlishın (332-bet), joq, ayrıldım (333-bet), ol (339-bet), Xaqan, boldı (340-bet), edi (346-bet), deng, ber (347-bet) so‘zlari radifga olingan. Jami 109 baytda radif qo‘llangan. Ya’ni tarjimadagi 109 bayt muraddaf bayt hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi hamma aradiflar tarjimada berilmagan. Aytish joizki, “radif ahamiyatsiz san’at emas, aks holda Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”dagi o‘rtacha har olti baytning birini radifli qilib yaratmagan bo‘lardi. Shuning uchun radif ishtirok etgan asarni radifli qilib o‘g‘irish shart. S.Ivanov bu san’atni asl nusxaning milliy koloritiga daxldor unsur hisoblaydi. Milliy o‘ziga xosligi saqlanmagan tarjimani esa chinakam qiymatga ega asar deb bo‘lmaydi”[4:137].

Uy oltun, farshi oltun, tomi oltun,

May oltun, zarfi oltun, jomi oltun [2:78].

Baytdagi oltun so‘zi uch joyda radif sifatida kelgan. Bunday misralarda radif tushurilsa, ma’no yo‘qoladi. Shu sababdan qoraqalpoqchada aniq tarjima qilingan:

Uy altın, jer altın, patik-te altın,  
Sharap altın, kese altın, jami – altın [3:69]

Quyidagi baytning tarjimasida esa asosiy fikrni ifodalagan radif berilmagan:

Dedi: “Har ishki qilmish odamizod,  
Tafakkur birla bilmish odamizod.

Tarjimada:

Ol aytti: – “bir istı adamzat etse,  
Onı adam bler pkir jurgizse.

Tarjimada “odamizod” radifi yo‘qolib, bayt asliyatdagidek jarangdor chiqmagan, natijada ta’sirchanligi kamaygan.

Dostondagi Farhod va Shirin uchrashuvi berilgan o‘rinlar g‘oyat ta’sirli ifodalangan. Ikki oshiq o‘rtasidagi samimiylik, tozalik, ma’naviy yuksaklik singari fazilatlar yaqqol tasvirlangan. Farhod tog‘ qazuvchilarga yordam berar ekan, Shirinni ko‘rishdan zarracha umid qilmaydi. Nihoyatda qiyin, og‘ir va mashaqqatli mehnatdan ezilib, yigitligida cholga aylanib qolayotgan chorasiz kishilarga rahmi kelib ularga chin ko‘ngildan yordam berishni istaydi. Bu hol dostonda Farhod tilidan:

Hunarni asrabon netkumdur oxir,

Olib tufroqqamu ketgumdur oxir

tarzida ifodalanadi. Tarjimada:

Ne qlaman honer saqlap ozime,

Ketemen-be, onı alıp gorime.

Baytdan ko‘rinib turibdiki, radif yo‘q. Tog‘ri, mazmun bor, lekin u asliyatdagidek jaranglamayapti. “Gorime” so‘zi ham qo‘pol eshitilyapti, uning o‘rniga boshqa so‘zdan foydalanilsa ma’qul bo‘lar edi. Yana “qlaman” so‘zida xato yozilgan. Aslida “qilaman” tarzida yozilishi kerak.

Navoiy qahramonini cheksiz kuch-qudrat egasi qilib tasvirlamaydi, balki uni o‘ta bilimdon odam sifatida ham ko‘rsatadi. Tog‘ qazishga tayyorlanishi



tasvirlangan o‘rinlarda Farhodning ishbilarmonligi, bilimdonligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Muallif Farhodga xos ezgu sifatlarni Shirin nazari bilan:

Jabinida muhabbat dardi zohir,  
Uzori uzra g‘urbat gardi zohir.

Tarjimada esa radif tushirilgan. “Blinip” so‘zi ham “bilinip” tarzida yozilishi kerak edi.

Mangnayında suyu darti korinip,  
Bet alpinen ğariplik tur blinip.

Asliyatda:

Manga shahlikda qulluq ham qil emdi,  
Atoliq ham o‘g‘ulluq ham qil emdi

Tarjimada:

Sen shah bolıp mağan qızmetker bolsang,  
Perzentim bolsang-da atalıq qılsang.

Mazkur baytda “ham qil endi” so‘zi radif bo‘lib kelgan. Biroq tarjimada radif aks etmagan. “Professor S.Ivanov ta’kidlaganidek, qofiya-yu radif qo‘shma fe’ldan tashkil topganida ko‘pincha qofiya, ya’ni asosiy fe’l yetakchi ma’noni tashiydi” [4:143]. Shunday ekan, bunday o‘rinlarda radifni aynan tarjima qilishni talab qilish sun’iylikka olib keladi. Bunday radiflar ohangdoshlikni ta’minlagani bilan, baytda asosiy ma’noni ifodalamasligi mumkin. Bunday paytda asosiy mazmuni berish muhim. Shu sababli dostonidagi bunday radifli baytlarning radifsiz tarjima qilinishi oddiy hol deyishimiz mumkin. Bu bilan radifsiz tarjima qilish mumkin demoqchi emasmiz. Albatta, asliyatdagidek radifli tarjima qilinsa baytlarning tashirchanligi oshadi. Tarjimon imkon boricha ijodiy izlanib, turli usullarni qo‘llab radiflarni tarjimada berishi darkor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Sharq nashriyot-matbaa konserni. T.:–1999.
2. Navoiy A. Farhod va Shirin. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Navoiy.A. Farhad ham Shirin. Qaraqalpaq mamleket baspası. Tortkul–1941
4. Olimov S. Tarjima san’ati. Maqolalar to‘plami. 5-kitob. Masnaviy tarjimasida radif. T.,: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1980.